

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

KARIMBOYEV DILSHOD DAVRONBEK O‘G‘LI

**MINTAQADA TRANSPORT TARMOQLARINI BARQAROR
RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.12 - “Mintaqaviy iqtisodiyot”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

UDK:

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Karimboyev Dilshod Davronbek o'g'li

Mintaqada transport tarmoqlarini barqaror rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish (Xorazm viloyati misolida)5

Каримбоев Дилшод Давронбек угли

Совершенствование организационно-экономических механизмов устойчивого развития транспортных сетей региона (на примере Хорезмской области).....29

Karimboev Dilshod Davronbek ugli

Improving organizational and economic mechanisms for the sustainable development of transport networks in the region (on the example of the Khorezm region)..... 53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works57

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

KARIMBOYEV DILSHOD DAVRONBEK O‘G‘LI

**MINTAQADA TRANSPORT TARMOQLARINI BARQAROR
RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.12 - “Mintaqaviy iqtisodiyot”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Iqt5182 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Matyakubov Umidjon Raximovich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Bayxonov Baxodir Tursunbayevich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xodjaniyozov Elbek Sardorovich

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.55.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "____" _____soat _____:_____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil 220100, Urganch sh., H.Olimjon ko'chasi 14-uy. Tel.: (998-62) 224-67-00; faks: (998-62)224-57-00; e-mail: info@urdu.uz).

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch sh., H. Olimjon ko'chasi 14-uy. Tel.: (998-62)224-67-00; faks: (998-62)224-57-00; e-mail: arm@urdu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____kuni tarqatildi.

(2025-yil "____" _____dagi №_____ raqamli reyestr bayonnomasi).

I. S. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

T. J. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., dotsent

B. Ruzmetov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi birlashgan ilmiy seminar raisi i.f.d., professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda transport tarmoqlari nafaqat odamlarni va tovarlarni biror nuqtaga eltib qo'yish, balki yangi ish o'rinlari yaratish, iqtisodiy qiymat zanjirlarini ulash hamda eksportni rag'batlantirish orqali iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashi tufayli ham nihoyatda katta ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda transport tarmog'i yalpi ichki mahsulotning 6% dan 12% gacha, transport-logistika xarajatlari 6% dan 25% ni tashkil qiladi¹. Transport tizimlarining barqaror rivojlanishi nafaqat mintaqa miqyosida, balki dunyo miqyosida strategik muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular iqtisodiy integratsiya va innovatsiyani ta'minlash, aholi farovonligini oshirish, hayot sifatini yaxshilash va havo ifloslanishini kamaytirish singari bir qator muhim ta'sir va vazifalari bilan muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda transport tarmoqlarini ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini muvozanatlashtirish zarurati barqaror transport vositalariga bo'lgan talabni oshirmoqda. Bir qator Yevropa davlatlarida ushbu tizim orqali havodagi zararli gazlarni kamaytirish, Yaponiyada infratuzilma va yoqilg'i xarajatlarini kamaytirish, Singapurda infratuzilma integratsiyasini oshirish, Skandinaviya davlatlarida ijtimoiy inklyuzivlikni yuksaltirish, AQSh va Germaniyada innovatsion rivojlanish kabi maqsadlar bilan muhim rol o'ynamoqda. Hozirda barqaror transport tizimlari sohasida bir qator zamonaviy tendensiyalar, jumladan, jamoat transportini ekologik toza, elektr va vodorod yoqilg'isida harakatlanuvchi vositalar asosida modernizatsiya qilish, elektromobillar bozorining rivojlanishi, sun'iy intellekt, raqamli boshqaruv hamda real vaqtli monitoringga asoslangan aqlli transport tizimlarining joriy etilishi kabilar kuzatilmoqda.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida transport tarmoqlarini barqaror rivojlantirish yo'nalishi bo'yicha izchil va samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Taraqqiyot Strategiyasi"ning 36-maqsadida mamlakatimiz mintaqalarining transport tarmoqlarini uzviy bog'lagan transport va logistika xizmatlar bozori va infratuzilmasini barqaror va jadal rivojlantirish belgilab qo'yilgan². Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, mazkur vazifani bajarishda barqaror transport tizimlari o'zining energiyasamaradorligi, ifloslanishlarni kamaytirishi, innovatsiyalarni qo'llashi va ijtimoiy tenglikni ta'minlashi vazifalari bilan ushbu strategiyaning ustuvor yo'nalishlariga mos izchil hissa qo'shadi. Shuningdek, ushbu jarayonda mintaqaning hududlarini ixtisoslashgan transport turlari orqali klasterlarni tashkil qilib rivojlantirish, mintaqada transport tarmoqlari samaradorligi va bu orqali mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda o'sish drayverlaridan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi PQ-3618 sonli "O'zbekiston Respublikasida avtomobil yo'llarini rivojlantirish bo'yicha 2018–2022-yillarga mo'ljallangan davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2018-yil 9-iyundagi 434-son "Avtomobil transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019-yil 1-fevraldagi PF-5647 sonli „Transport sohasida davlat

¹ <https://transportgeography.org/contents/chapter3/transportation-and-economic-development/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/mact/-5841063>

boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 11-noyabrdagi PQ-4887 sonli "Transport sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish va logistika tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 1-martdagi PQ-111 sonli "Avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021-yil 3-martda qabul qilingan "Transport to'g'risida"gi, 2021-yil 8-oktabrdagi 630-son "Hududlarda jamoat transporti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 4-apreldagi PQ-186 sonli "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-iyundagi PQ-298 son "Avtotransport vositalaridan foydalanishda aholiga qo'shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023-yil 16-fevraldagi PQ-59 son "Jamoat transport tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2024-yil 28-oktabrdagi PQ-710sonli "Avtomobil yo'llari bo'ylab katta hajmli va og'ir vaznli avtotransport vositalarining harakatlanish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2024-yil 14-noyabrda qabul qilingan PQ-757 sonli "Hududlarda jamoat transporti infratuzilmasini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2024-yil 19-dekabrda 855-son "Avtotransportda yo'lovchi tashish xizmatlari sifatini baholash metodikasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2024-yil 30-dekabrda PQ-901 sonli "Avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va ulardan foydalanish ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror va farmonlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish ham tadqiqotning ahamiyatini muayyan darajada oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahonda transport tizimlari, xususan barqaror transport tizimlarining xususiyatlari, tasniflanishi va amaliyoti bilan, shuningdek, ularning mintaqaviy iqtisodiyotga roli, ahamiyati va iqtisodiyotga qo'shadigan hissalarini J.Tiffan, R.Vickerman, J.Rodrigue, A.Flew, C.Kissling, A.Munnell, D.Aschauer, C.Comtois, B.Slack, H.Marks, T.Litman, A.Papadaskalopoulos, M. Xristofakis³, P. Krugman, L.Kaya, A.Timman, L.Kaya, L.Kermad, P. Pocheta, H. Poimboeuf, L. Filina-Dawidowicz, S. Stankiewicz, Čižiūnienė, K., & Matijošius, Y.Sheffi va boshqalar o'rganganlar⁴.

³ Jean-Paul Rodrigue – The Geography of Transport Systems, New York, "Socioeconomic benefits of transportation" ,Malthus, T. K., Flew, A., 1983. An Essay on the Principle of Population. London: Penguin Classics, 304 p. ,Quinet, E. and Vickerman, R. (2004). Principles of transport economics. Cheltenham, Edward Elgar Publishing Limited, Tiffin, J. and Kissling, C. (2007). Transport communications. Understanding global networks enabling transport services. "An Economic Theory of Infrastructure and Commons Management", article, [Brett M. Frischmann](#), Tim Lambert, "A brief history of transportation", Banister, D. (2008). The Sustainable Mobility Paradigm. Transport Policy, 15(2), 73-80, Rodrigue, J.-P., Comtois, C., & Slack, B. (2020). The Geography of Transport Systems (5th ed.). Routledge, Marks, D.H., 2002, The Evolving role of Systems Analysis in Process and Methods in LargeScale Public

⁴ Litman, T. (2010), "Transportning iqtisodiy rivojlanish ta'sirini baholash", Viktoriya, Viktoriya transport siyosati institute, Krugman, P. (1991), "Geografiya va rivojlanish", Venables, A. va Gasiorek, M. (1998), "Bozor muvaffaqiyatsizligi sharoitida transportni yaxshilashning farovonlik oqibatlari", Eduarda Alencar Maluf Kiame, "A Sustainability in Public Passenger Transport", L.Kaya, „Footprints of the Future: "Cleaner and Faster Transportation with Shared E-Scooter Operational Models", Timman A. van Oeveren, "Hydrogen Liquefaction: Life Cycle Analysis"

MDH davlatlari tadqiqotchilaridan Irina A. Shmeleva, A. Ermakova, A.Y. Aleksandrova, A.S. Kuskov, Olga Speranskaya, Y.G. Ponomareva, Stanislav E. Shmelev, A.V. Doktorov, V.G. Gulyaev, M.B. Birjakov, Nataliya Kimlar⁵ barqaror transport tizimlari va ularning mintaqa iqtisodiyotidagi ta'sirlari borasida ish olib borganlar.

Ushbu mavzu doirasida mamlakatimiz olimlarida A.Urokov, R.Soataliev, P.Maimunah, R.Sidernko, A.Vokhidova, R.Toshpulatova, D.Amanov, A.Karimova, I.Makarova, M.Bozorov, B.Do'smuhammadov, M.Qobilova, A. Sheraliyev, G. Tsolov⁶ va boshqalar ham tadqiqotlar olib borganlar.

Ammo ushbu tadqiqotlarda barqarorlik va innovatsion yondashuvlarni e'tiborga olgan holda Xorazm viloyatida barqaror transport tizimlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar yetarlicha amalga oshirilmaganligi dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalarini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya mavzusi Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mintaqa iqtisodiyotida barqaror transport tizimlarini yaratish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiya va takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

mintaqada barqaror transport tizimlariga o'tish zaruratini va mohiyatini ilmiy asoslash;

mintaqada barqaror transport tizimlarining ustuvor yo'nalishlarini ilmiy-nazariy tadqiq qilish;

transport tizimlarini barqaror rivojlantirishda xorij tajribasini tahlil qilish;

mintaqada transport tarmoqlarining holatlarini, sifat ko'rsatkichlarini o'rganish va tahlil qilish;

mintaqada barqarorlik tamoyillariga asoslangan innovatsion yo'nalishlarni taklif qilish;

mintaqada transport tarmoqlarini barqaror rivojlantirishning klaster yondashuvlarini o'rganish va tahlil qilish;

Muhammad Nurhasan, Mensah, K.O. Kwateng, "Transport sustainability – a bibliometric, systematic methodological review and future research opportunities", Sheffi, Y. (2010). Logistics intensive clusters.

⁵ Ermakova J.A. va boshq. *Ekonomika transportnogo obslujivaniya v turizme: uchebnoe posobie*. Orenburg: Orenburgskiy gosudarstvennyy universitet (OGU), 2013. – 111 s, Aleksandrova A. Yu. (tahrir ostida). *Geografiya turizma*. Moskva: Knorus, 2009. – s. 314–332, Kuskov A.S. *Transportnoe obespechenie v turizme: uchebnik*. Moskva: Knorus, 2015. – 356 s, Ponomareva Ye.G. *Transportnoe obespechenie: uchebnoe posobie*. Moskva: ATiSO, Akademiya truda i sotsialnykh otnosheniy, Kafedra neproizvodstvennoy sfery i sotsialnykh tekhnologiy, 2018

⁶ Mukimov, S. (2019). *Economic Impacts of Road Infrastructure on Regional Development in Uzbekistan: A Case Study of Khorezm*, Tashpulatova & Amanov, 2021, *Modern experience in road construction*, Vokhidova 2019, "Barqaror transport tizimlari", page 295-305, Aslidin Urokov, Rakhimjon Soataliev, *The Current State and Prospects of Development of the Network of Public Roads of Uzbekistan*, Mukimov, S. (2019). *Economic Impacts of Road Infrastructure on Regional Development in Uzbekistan: A Case Study of Khorezm*. *Journal of Central Asian Studies*, Karimova, A. (2021), "Environmental Challenges in Uzbekistan's Transport Sector: Case Study on Urban Air Pollution", Makarova, I., et al. (2020), "International Transport Corridors: Impact on Territorial Development", "O'zbekistonda avtomobil transportining shakllanishi va hozirgi holati", Bozorov Mansurjon.

Xorazm viloyatida transport tarmoqlarining rivojlanishini baholashni amalga oshirish.

Tadqiqotning obyekti bo'lib mintaqada faoliyat ko'rsatayotgan transport tarmog'i faoliyati bilan shug'ullanadigan subyektlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini Xorazm viloyatida innovatsion yondashuvlar asosida transport tizimlarini barqaror rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, anketa so'rovnomasi, iqtisodiy statistik va ekonometrik tahlil, korrelyatsion-regressiya tahlil, ekspert baholash, ARDL model, ANOVA model va prognozlashtirish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mintaqada transport tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "transport barqarorligi indeksi" (sustainable transportation index) ni "past (0-33,3)", "o'rta (33,3-66,6)", "yuqori (66,6-100)" intervallar yordamida baholash taklif etilgan;

mintaqaning barqaror iqtisodiy o'sishiga ta'sir qiluvchi transport tarmoqlaridagi barqarorlik amaliyotlari (sustainability practice), jamoat xavfsizligi (public safety), ish o'rinlarini yaratish (job creation) hamda yoqilg'i samaradorligi (fuel efficiency) omillarining bevosita ijobiy ta'sir ustuvorligini tavsiflovchi SEM (Structural Equation Modeling) modeli taklif etilgan;

Urganch shahrida elektr avtobuslari, Xiva shahrida elektro-shuttle avtobuslari, Gurlan tumanida kichik sig'imli elektro avtobuslar hamda Xonqa tumanida quyosh energiyali mikroavtobuslarga ixtisoslashtirilgan klaster korxonalarini tashkil qilishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

mintaqa transport tarmoqlari rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarining 2025–2030-yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Xorazm viloyati mintaqasida faoliyat olib borayotgan transport korxonalarini faoliyatini o'rgangan holda, ularning barqaror rivojlanishiga transformatsiya bo'lishida ijtimoiy kampaniyalar, davlat subsidiyalari va imtiyozlarining roli muhim ekanligi o'rganildi;

Xorazm viloyati mintaqasi uchun transport, iqtisodiyot va ekologiya sohasi statistik ko'rsatkichlari o'rganilib, ARDL ekonometrik modeli yordamida ularning ta'sirlari baholandi;

Xorazm viloyati mintaqasida barqaror transport tizimlarini tashkil qilishda, yondosh sohalar, jumladan, savdo, kommunikatsiya, ko'chmas mulk va ijtimoiy xizmatlar bilan bog'liqliklari va aloqalari asoslanildi;

Mintaqadagi transport tarmoqlarining mintaqaviy iqtisodiyotiga ijobiy ta'sirini ta'minlash uchun barqarorlik omillari, jumladan, texnologik, ekologik, iqtisodiy va huquqiy omillar salmoqli ta'sir qilishi asoslanildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya ishida qo'llanilgan yondashuv va usullarning qo'yilgan maqsadlarga muvofiq bo'lishligi, ma'lumotlarning rasmiy va ishonchli manbaalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi, Transport Vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining statistik axborotnomalari va davriy

hisobotlaridan olinganligi, bajarilgan tahlillar esa statistik-ekonometrik usullar yordamida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan mintaqada transport tarmoqlarini barqaror rivojlantirish uchun maqbul innovatsion mexanizmni yaratish va takomillashtirish, zarur uslubiy asoslarni taklif qilish va klaster, shuningdek barqaror rivojlanish konsepsiyalarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekiston Respublikasi Transport Vazirligi va hududiy boshqarmalar transport tarmoqlarini barqaror rivojlantirish bo‘yicha takliflardan foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Xorazm viloyati mintaqasida transport tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda “transport barqarorligi indeksi” (sustainable transportation index) ni “past (0-33,3)”, “o‘rta (33,3-66,6)”, “yuqori (66,6-100)” intervallar yordamida baholash taklifi Xorazm viloyati hokimligining 2024-yil 26-noyabrdagi “Hududlarda jamoat infratuzilmasini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 757-sonli qarorni ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 14-iyundagi 02-4-09/5988-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi mahsulotlarning tez va ishonchli harakatini ta‘minlab logistika samaradorligini yaxshilagan;

Xorazm viloyati mintaqasi uchun mintaqaning barqaror iqtisodiy o‘rishiga ta‘sir qiluvchi transport tarmoqlaridagi barqarorlik amaliyotlari (sustainability practice), jamoat xavfsizligi (public safety), ish o‘rinlarini yaratish (job creation) hamda yoqilg‘i samaradorligi (fuel efficiency) omillarining bevosita ijobiy ta‘sir ustuvorligini tavsiflovchi SEM (Structural Equation Modeling) modeli bo‘yicha taklif Xorazm viloyati hokimligining 2024-yil 9-apreldagi “Atmosfera havosiga transport vositalarining salbiy ta‘sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 166-sonli qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 14-iyundagi 02-4-09/5988-son ma‘lumotnomasi). Ushbu modeldan foydalanish yo‘lovchilar xavfsizligini oshirib, elektrdan foydalanishni oshirish hisobiga yoqilg‘i samaradorli 11-14 % ga oshirgan;

Urganch shahrida elektr avtobuslari, Xiva shahrida elektro-shuttle avtobuslari, Gurlan tumanida kichik sig‘imli elektro avtobuslar hamda Xonqa tumanida quyosh energiyali mikroavtobuslarga ixtisoslashtirilgan klaster korxonalarini tashkil qilish taklifi Xorazm viloyati hokimligining 2023-yil 26-dekabrdagi “Tramvay va trolleybus transportida yo‘lovchilarni tashish tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 664-sonli qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 14-iyundagi 02-4-09/5988-son ma‘lumotnomasi). Natijada klaster tarkibiga kiruvchi korxonalar 5-10 % ga, yo‘lovchilar soni 15-20 % ga oshirish imkoniyati yaratilgan;

Mintaqa transport tarmoqlari rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlarining 2025–2030-yillarga mo‘ljallangan prognoz qiymatlari ishlab chiqish bo‘yicha taklif Xorazm viloyati hokimligining 2024-yil 9-apreldagi “Atmosfera havosiga transport vositalarining salbiy ta‘sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 166-sonli qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil

14-iyundagi 02-4-09/5988-son ma'lumotnomasi). Mazkur model natijalaridan mintaqqa transport tarmog'ini rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishi natijalari 5 ta xalqaro va 4 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Ishning umumiy hajmi 119 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Innovatsion iqtisodiyot sharoitida transport tarmoqlarining barqaror rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida transport tarmoqlarini barqaror rivojlantirishning evolyutsiyasi va tendensiyalari, transport tarmoqlarini mintaqa iqtisodiyoti rivojlanishiga ta‘sirining xorijiy mamlakatlar tajribalari, O‘zbekistonda transport tarmoqlarini barqaror rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari tadqiq qilingan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti va butunjahon mamlakatlari, ularning parlamentlari va fuqarolik jamiyati institutlari, biznes hamjamiyatlari o‘rtasida uzoq davom etayotgan “global maslahatlashuvlar” natijasida barqaror iqtisodiyot va barqaror rivojlanish yo‘li – bashariyat uchun yagona to‘g‘ri yo‘l, degan umumiy xulosaga kelinib, uning ustuvor mezonlari belgilab olindi. Bunday maqsadlar dastlab, BMTning “Mingyillik rivojlanish deklaratsiyasi”⁷ da, keyinchalik esa “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish kun tartibi” deb nomlangan salmoqli hujjatda belgilab qo‘yildi.

Barqaror transport energiya uchun dunyoning tabiiy resurslariga tayanmaydigan yoki tabiat va atrof-muhitga kam salbiy ta‘sir yetkazadigan har qanday transport turi sifatida tasvirlash mumkin⁸. U jamoat transportini (elektr avtobuslar, nol gazli avtobuslar, metro, poyezd, tramvay va boshqalar) va shaxsiy transportni (piyodalar, velosipedlar, skuterlar, elektr transport vositalari va boshqalar) o‘z ichiga oladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ga ko‘ra, barqaror transport tizimi xavfsiz, arzon, hamma uchun mavjud, samarali va chidamli bo‘lib, karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirishi, resurs sarfini pasaytirishi va Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga (BRM) erishishga yordam berishi kerak⁹.

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 36-maqsadida barcha transport turlarini uzviy bog‘lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, yirik shaharlar o‘rtasida kunlik transport qatnovlari asosida manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini yaratish alohida belgilab o‘tilgan¹⁰. Shuningdek, temir yo‘l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish va avtomobil yo‘llari tarmoqlarini jadal rivojlantirish, transport sohasida tashqi savdo uchun “yashil koridorlar” hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish va tranzit yuk hajmini 15 million tonnaga yetkazish, elektrlashgan temir yo‘llar ulushini 65% ga yetkazish, aviaqatnovlar sonini 4 baroborga oshirish masalalariga ham alohida e‘tibor qaratilgan.


⁷ <https://www.un.org/millenniumgoals/>

⁸ <https://climate.selectra.com/en/advice/sustainable-transport>

⁹ <https://www.un.org/en/academic-impact/sustainability>

¹⁰ https://strategy.uz/index.php?static=o_strategii

Transport tarmoqlarini barqaror rivojlantirish uchun tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar muhim o‘rin tutadi. Tashkiliy jihatdan zamonaviy innovatsion yondashuvlar asosida strategiya ishlab chiqish, boshqaruv tizimini yaratish, o‘shirish omillarini aniqlash hamda transport tarmoqlarini joylashtirish va integratsiyalashuvga e‘tibor qaratiladi. Iqtisodiy tomondan esa ichki va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, davlat dasturlarini ishlab chiqish, davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlaridan foydalanish, raqamli texnologiyalarni qo‘llash, raqobat muhitini rag‘batlantirish va moliyaviy mexanizmlarni yo‘lga qo‘yish asosiy vazifalar hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Mintaqada transport tarmoqlarini barqaror rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari¹¹

Ma'lumki, transport tizimlari davlatlar rivojlanishidagi muhim omillardan biri hisoblanadi va doimo, jamiyat yuqoriroq darajadagi mobillikni talab qilgani holda, transportning salbiy oqibatlari past darajada bo'lishini istaydi, shu nuqtai nazardan

¹¹ Manba: Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

barqaror transport nazariyasi juda murakkab va ta'riflash qiyin hisoblanadi¹². Barqaror transport rivojlanishga individual yondashuvlar va tushunchalar atrof-muhit, ijtimoiy yoki iqtisodiy nuqtai nazariga qaratilganligiga qarab farqlanadi. Iqtisodiy yondashuv samaradorlik, o'sish, barqarorlik, avlodlararo adolat va bandlikni ta'kidlaydi. Ijtimoiy yondashuv qashshoqlik, madaniy meros, avlodlararo adolat, fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonlarida ishtiroki va bandlikka e'tibor qaratadi. Atrof-muhit yondashuvi esa biologik xilma-xillik, tabiiy resurslar va ekologik ifloslanishga e'tibor beradi¹³. Barqaror transport ta'rifidagi ushbu yondashuvlarni 3 ta asosiy tarkibiy qismlar yordamida izohlash mumkin¹⁴.

O'zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadida Barqaror Rivojlanishning 11-maqsadlariga e'tibor bersak, bu joyda Respublikaning reytingi 50 balldan ortiqroq. O'zbekistonning Barqaror Rivojlanish bo'yicha 17 ta maqsadlar bo'yicha reyting ballari berilgan bo'lib, ular 25 balldan 95 ballgacha oraliqda o'zgaradi. Tadqiqot ishida barqaror transport tizimlariga o'tishning jahon tajribalari o'rganildi, xususan, Portugaliya tajribasiga ko'ra, o'tish jarayonida infratuzilmani qurish asosiy element hisoblanadi va transport tizimlari butun mintaqa iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi.

Dissertatsiya ishining **“Mintaqada transport tarmoqlarini barqaror rivojlanishining bugungi holati va tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida Xorazm viloyati mintaqasida transport tarmoqlarining rivojlanish bocqichlari, holatlar, tendensiyalar, tarmoq rivojiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili va shuningdek mintaqadagi transport korxonalaridan olingan so'rovnoma asosida mintaqagi transport tarmoqlarining barqarorligiga ta'sir qiluvchi omillar ularning tahlillari keltirilgan.

Transport tizimlari mintaqaviy iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, uning rivojlanish holati nafaqat mintaqa iqtisodiyotining umumiy ko'rsatkichlariga, balki aholi turmush darajasi, biznes muhitining shakllanishi va uning uzoq muddatli istiqbollarga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Respublikamizda transport tarmoqlarining rivojlanishini ko'rib chiqish jarayonida ularni temir yo'l, avtomobil, havo transporti kabi turlar rivojlanishi orqali ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'zbekistonda transport sohasi 1990-yillarda endi rivojlanish pallasida bo'lgan, O'zbekistonning ilk mustaqillik yillarida bu ko'rsatkichlar saqlanib turgan hisoblanadi. 2000-yillardan boshlab havo transportida, transportning boshqa sohalarida tub islohotlar o'tkazila boshlangan. 2010-yillarga kelib esa, “O'zbekiston temir yo'llari” AJ va Ispaniyaning “Talgo” kompaniyasi o'rtasida tezyurar yo'lovchi elektropoyezdlari sotib olinishi va 2011-yil “Afrosiyob” tezyurar poyezdi ishga tushirilishi sohaning yanada jad'al rivojlanishiga turtki bo'ldi. Respublikada va mintaqada avtomobil yo'llarining ahamiyati juda katta hisoblanadi (1-jadval).

¹² Meadows, D.H., Meadows, D.L., Randers, J., 1992. Beyond the Limits. Vermont: Chelsea Green Publishing Company, 320 p. ISBN-10: 0930031628

¹³ Marks, D.H., 2002. The Evolving role of Systems Analysis in Process and Methods in LargeScale Public Socio-Technical Systems. Massachusetts Institute of Technology, Engineering Systems Division. Working paper Series, ESD-WP-2003-01.08-ESD, Internal Symposium, May 29-30, 2002 [cit. 2007-06-14]

¹⁴ Moldan, B., Hák, T., Kolářová, H., 2002. K udržitelnému rozvoji České republiky: vytváření podmínek. Praha: Centrum pro otázky životního prostředí UK, 1852 p. ISBN 80-238- 8378-X. (in Czech)


O‘zbekiston avtomobil yo‘llarining holati (2024-yil holatiga)¹⁵

Nomi	Xalqaro ahamiyatga molik	Davlat ahamiyatiga molik	Mahalliy ahamiyatga molik	Jami
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	664	992	2557	4213
Xorazm viloyati	113	706	1391	2210
Navoiy viloyati	302	2490	1125	3917
Buxoro viloyati	540	1155	2406	4101
Qashqadaryo viloyati	425	890	2112	3427
Surxondaryo viloyati	351	990	1502	2843
Samarqand viloyati	385	979	2733	4097
Jizzax viloyati	168	1431	1002	2601
Sirdaryo viloyati	259	505	686	1450
Toshkent viloyati	400	1241	2324	3965
Namangan viloyati	69	1048	2260	3377
Andijon viloyati	103	800	1560	2463
Farg‘ona viloyati	202	873	2956	4031

Daryo transporti 11 ta asosiy qonunchilik hujjatlari, jumladan Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 5-maydagi 141-son qarori bilan tasdiqlangan “Kemalarni qurishda, ishlatishda, qayta ta’irlashda majburiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom”, 1997-iyul 25-fevraldagi 106-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining ichki suv transporti ustavi”, “Kemalarni ro‘yxatga olish qoidalari”, “Daryo transportida yuk tashish qoidalari”, “O‘zbekiston Respublikasi ichki kema yo‘llarida suzish qoidalari” va “O‘zbekiston Respublikasi ichki kema yo‘llarida suzish qoidalari” kabi qonun va qonun osti hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Barqaror transport tizimlarini shakllantirishga infratuzilma sifati, iqtisodiy imkoniyatlar, texnologik yutuqlar, ekologik talablar, urbanizatsiya darajasi, siyosiy qarorlar hamda mahalliy iqlim sharoitlari ta’sir qiladi (2-rasm).

¹⁵ Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi ma’lumotlariga tayangan holda muallif ishlanmasi (<https://uzavtoyul.uz/open-data/open-electronic-map-showing-state-of-roads/avtomobil-yollarining-holatini-korsatuvchi-ochiq-e>)



2-rasm. Mintaqada barqaror transport tizimlariga ta'sir qiluvchi omillar¹⁶

Xorazm viloyati transport tarmoqlari nuqtai nazaridan O'zbekistonning boshqa mintaqalaridan farq qiluvchi xususiyatlarga ega. Xorazmning asosiy shaharlarini (Urganch, Xiva) qo'shni viloyatlar bilan bog'laydigan magistral yo'llar mavjud. Xorazm orqali o'tuvchi magistral yo'llar mintaqaning xalqaro transport koridorlariga ulanishini ta'minlaydi. Ayniqsa, Turkmaniston va Qozog'iston bilan chegaradosh hududlarda joylashgan yo'llar xalqaro savdo uchun muhim imkoniyat yaratadi. Jumladan, A-380 – Guzor–Buxoro–Nukus–Beyneu, A-381 – Urganch–Shovot–Turkmaniston, P-95 – Urganch–Xiva–Turkmaniston, M-37 – Ashxobod–Qo'ng'iroq, P-11 – Urganch–Qo'shko'pir–Xazorasp avtomobil magistrallari Xorazmni O'zbekistonning boshqa hududlari, jumladan, Qoraqalpog'iston va Qozog'iston bilan bog'laydi, shuningdek, mintaqani xalqaro tranzit yo'nalishlariga ulaydi. Qo'shimchasiga, Urganch–Bog'ot–Shovot yo'li mahalliy transport aloqalarini ta'minlaydi va ichki iqtisodiy faollik uchun xizmat qiladi. Xiva–Hazorasp yo'li esa Xorazmning ichki transport infratuzilmasini yaxshilashda ayniqsa ahamiyatli hisoblanadi.

¹⁶ Muallif ishlanmasi

Xorazm viloyati mintaqasida transport va YaHM statistik ko'rsatkichlari¹⁷

Yil	Transportning YaHMdagi ulushi, mlrd. so'm	Transportning YaHMda ulushi (foizda)	Transport xizmatlari (mlrd so'm)	Yuk aylanmasi (mln.t. km)	Transportda bandlar (ming kishi)	YaHM (mlrd. so'm)
2014	447,80	6,12%	712,90	1 258 000,0	18,40	7 313,70
2015	564,30	6,31%	913,50	1 344 900,0	19,10	8 940,40
2016	775,30	7,50%	1 085,01	569 975,1	19,80	10 336,60
2017	969,30	7,15%	1 151,51	620 902,2	20,40	13 557,60
2018	1 045,20	5,88%	1 241,86	703 653,8	20,20	17 763,10
2019	1 198,70	5,56%	1 431,79	751 184,9	19,10	21 574,30
2020	1 219,60	5,18%	1 568,30	862 711,4	19,70	23 531,80
2021	1 572,20	5,29%	2 007,20	1 025 765,5	19,00	29 737,20
2022	1 908,60	5,09%	2 432,00	1 065 646,0	20,00	37 474,30
2023	2 273,50	5,23%	2 803,90	1 134 320,4	20,60	43 463,40

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi "Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5647-son farmoni¹⁸ va 2019-yil 1-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PQ-4143-son qarori¹⁹ asosida O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tashkil qilindi. Transport vazirligini joriy qilishdan asosiy maqsad mamlakatdagi mavjud transport tizimlarini tubdan isloh qilish tamoyilini ishlab chiqish, transport xizmatlari sifatini jadallik bilan oshirish, transport jarayonlarini takomillashtirish va tarif siyosatining shaffofligini oshirish, zamonaviy korporativ boshqaruvni joriy etish va ish jarayonlarini raqamlash hisoblanadi. Ekologik omillar barqaror transport tizimlarining rivojlanishiga juda katta turtki va sabab bo'ladi (4-jadval).

Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismi ekologik samaradorlikning kamchiligi atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar hajmining oshishi bilan ta'sir qiladi. Bu esa barqaror transport strategiyasini shakllantirish, xususan:

- elektr transport vositalariga o'tish,
- jamoat transportini kengaytirish,
- ekologik soliq va kvotalar joriy etish,
- transport infratuzilmasini "yashil" tamoyillar asosida modernizatsiya qilish

¹⁷ Stat.uz

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, "Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019 yil 1 fevral, farmon raqami: PF-5647

¹⁹ "O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2019 yil 1 fevraldagi PQ-4143-son qarori, <https://lex.uz/docs/4194161>

Atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar (ming tonnada)²⁰

Yillar	O'zbekiston Respublikasi	Xorazm viloyati	Xorazm vilyotining ulushi
2015	975,1	5	0,513%
2016	1008,2	5,2	0,516%
2017	853,5	9,2	1,078%
2018	883,7	7,1	0,803%
2019	952,8	7,2	0,756%
2020	924,4	6,8	0,736%
2021	908,7	7,2	0,792%
2022	873,6	4,5	0,515%
2023	763,2	3,4	0,445%

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, transport infratuzilmasiga qaratilgan investitsiyalar mintaqa yalpi ichki mahsulotini (YaIM) o'rtacha 1-2% ga oshirishi mumkin, bu esa barqaror transport tizimlarining iqtisodiy ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi²¹. Shu bilan birga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) doirasida transport sohasida yashil texnologiyalarni joriy etish va ekologik toza transport tarmoqlarini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi²².

Mazkur tadqiqot ishimizning ushbu bo'limida SEM modeli SPSS, AMOS dasturlari yordamida iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarning barqaror transport orqali mintaqaning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini miqdoriy va sifatli jihatdan tahlil qilish imkonini beradi. Quyida ushbu tadqiqotlarga asoslangan holda gipotezalar shakllantirildi va sinovdan o'tkazildi.

H₁ (bevosita ta'sir) gipoteza: Iqtisodiy omillar (EF) → Barqaror transport tizimlari (STS)

H₂ (bevosita ta'sir) gipoteza: Ijtimoiy omillar (SF) → Barqaror transport tizimlari (STS)

H₃ (bevosita ta'sir) gipoteza: Ekologik omillar (EnF) → Barqaror transport tizimlari (STS)

H₄ (bevosita ta'sir) gipoteza: Barqaror transport tizimlari (STS) → Mintaqa iqtisodiy taraqqiyoti (RED)

Mazkur tadqiqotda 100 ta respondentdan olingan so'rovnoma natijalarini o'z ichiga oladi. Har bir respondent tomonidan Iqtisodiy omillar (EF), Ijtimoiy omillar (SF), Ekologik omillar (EnF), Barqaror transport tizimlari (STS) va Mintaqa iqtisodiy taraqqiyoti (RED)ga oid ko'rsatkichlar 1 (juda past) dan 5 (juda yuqori) gacha bo'lgan Likert shkalasi asosida baholandi. Quyidagi o'zgaruvchilar tahlil qilindi (5-rasm):

- EF (Iqtisodiy omillar): EF₁ – EF₄ (4 ta ko'rsatkich);
- SF (Ijtimoiy omillar): SF₁ – SF₄ (4 ta ko'rsatkich);

²⁰ Muallif ishlanmasi, ko'rsatkichlar stat.uzdan olindi.

²¹ World Bank. (2023). Transport Sector Report. <https://www.worldbank.org/en/topic/transport>


²²United Nations. (2023). Sustainable Development Goals: Transport.

- **EnF (Ekologik omillar):** $EnF_1 - EnF_4$ (4 ta ko'rsatkich);
- **STS (Barqaror transport tizimlari):** $STS_1 - STS_3$ (3 ta ko'rsatkich);
- **RED (Mintaqa iqtisodiy taraqqiyoti):** $RED_1 - RED_4$ (3 ta ko'rsatkich).

Strukturaviy model:

$$STS = \alpha_1 + \beta_1 * EF + \beta_2 * SF + \beta_3 * EnF + \epsilon_1 \quad (1)$$

Yuqoridagi o'zgaruvchilarning umumiy xususiyatlarini (o'rtacha qiymat, standart chetlanish, maksimum va minimum qiymatlar) ifodalashda statistik tavsifdan foydalanildi Endi shakllantirilgan Strukturaviy Tenglamalar Modeli (SEM) natijalariga to'xtalib o'tamiz (3-jadval).



3-rasm. Strukturaviy Tenglamalar Modeli (SEM) modelining baholash natijalari²³

H_1 gipotezaga ko'ra, Iqtisodiy omillar barqaror transport tizimlariga o'rtacha darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Miqdoriy jihatdan, iqtisodiy omillarda 1 birlik o'zgarish STS da 0.32 birlik o'zgarishga olib keladi. Iqtisodiy nuqtai nazardan, bu transport infratuzilmasiga investitsiyalar (masalan, yo'l qurilishi, jamoat transporti modernizatsiyasi) barqaror transport tizimlarini rivojlantirishda muhim ekanligini ko'rsatadi.

H_2 gipotezaga ko'ra, ijtimoiy omillar STS ga biroz kuchsizroq ta'sir qiladi (1 birlik o'zgarish 0.28 birlik ta'sirga olib keladi). Iqtisodiy jihatdan, bu jamoatchilik qo'llab-quvvatlashi yoki ijtimoiy infratuzilma (masalan, transport xizmatlaridan foydalanishni rag'batlantirish) transport tizimlarining barqarorligini oshirishini ko'rsatadi.

²³ Manba: Muallif ishlanmasi.

Gipotezalar va ularning ta'sirlari²⁴

Gipoteza	Bog'liqlik	Koeffitsiyent	Standart xatolik	P-qiymat	Natija
Bevosita ta'sirlar (Direct Effects)					
H ₁	EF → STS	0.32	0.08	0.01***	Qabul qilindi
H ₂	SF → STS	0.28	0.07	0.01***	Qabul qilindi
H ₃	EnF → STS	0.25	0.09	0.05**	Qabul qilindi
H ₄	STS → RED	0.45	0.06	0.01***	Qabul qilindi
Bilvosita ta'sirlar (Indirect Effects)					
—	EF → STS → RED	0.14	0.04	0.05**	—
—	SF → STS → RED	0.13	0.03	0.05**	—
—	EnF → STS → RED	0.11	0.04	0.05**	—

H₃ gipotezaga ko'ra, Ekologik omillar eng kuchsiz ta'sirga ega (1 birlik o'zgarish 0.25 birlik ta'sirga olib keladi). Iqtisodiy nuqtai nazardan, bu yashil texnologiyalar (masalan, elektr avtobuslar) yoki emissiyalarni kamaytirish choralari transport tizimlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini, lekin iqtisodiy ta'siri cheklanganligini ko'rsatadi.

H₄ gipotezaga ko'ra, barqaror transport tizimlari mintaqa iqtisodiy taraqqiyotiga eng kuchli ta'sir ko'rsatadi (1 birlik o'zgarish 0.45 birlik ta'sirga olib keladi). Iqtisodiy jihatdan, bu samarali transport tizimlari iqtisodiy o'sishga (masalan, savdo hajmini oshirish, logistika xarajatlarini kamaytirish) katta hissa qo'shishini ko'rsatadi.

